

**TURIZM FAOLIYATIDA INNOVATSION MODELLARNI QO‘LLASH VA
UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH***Rustamova Madina Vaxxobjon qizi**Chirchiq davlat pedogogika universiteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasida innovatsion modellarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Turizm industriyasining global iqtisodiyotdagi o‘rni, uning rivojlanish tendensiyalari hamda raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi boshqaruv yondashuvlari yoritib berilgan. Shuningdek, turizm xizmatlarini rejalashtirish, boshqarish va prognozlashda emulyatsion hamda innovatsion modellarni qo‘llash imkoniyatlari keng ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion modellar turizm korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Maqola turizm sohasida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: turizm, innovatsiya, emulyatsion model, raqamli texnologiyalar, boshqaruv, turizm bozori, xizmat sifati, raqobatbardoshlik.

**ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ В ТУРИСТИЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПОВЫШЕНИЕ ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения инновационных моделей в сфере туризма. Освещается роль туристической индустрии в мировой экономике, современные тенденции ее развития, а также новые подходы к управлению на основе цифровых технологий. Особое внимание уделяется возможностям использования имитационных и инновационных моделей при планировании, управлении и прогнозировании туристических услуг. Результаты исследования показывают, что внедрение инновационных моделей способствует повышению конкурентоспособности туристических предприятий, эффективному использованию ресурсов и улучшению качества обслуживания туристов. Статья содержит научные и практические рекомендации по внедрению современных методов управления в туристической отрасли.

Ключевые слова: туризм, инновации, имитационные модели, цифровые технологии, управление, туристический рынок, качество услуг, конкурентоспособность.

APPLICATION OF INNOVATIVE MODELS IN TOURISM ACTIVITIES AND IMPROVING THEIR EFFICIENCY

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of applying innovative models in the tourism sector. It highlights the role of tourism in the global economy, modern development trends, and new management approaches based on digital technologies. Particular attention is paid to the use of simulation and innovative models in planning, managing, and forecasting tourism services. The research results demonstrate that innovative models contribute to increasing the competitiveness of tourism enterprises, improving resource efficiency, and enhancing service quality. The article provides scientific and practical recommendations for implementing modern management methods in the tourism industry.

Keywords: tourism, innovation, simulation models, digital technologies, management, tourism market, service quality, competitiveness.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va texnologik raqobat davrida korxonalar va tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, eng avvalo, innovatsion boshqaruv tizimining samaradorligiga bogʻliqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangilik kiritish — bu faqat texnik taraqqiyot omili emas, balki iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va uzoq muddatli rivojlanishning kafolatidir. Shu bois innovatsion menejment bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish sohalarida, balki xizmat koʻrsatish, taʼlim, sogʻliqni saqlash, transport va davlat boshqaruvi tizimlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion menejment masalalari soʻnggi yillarda iqtisodiyot va boshqaruv sohalarida eng dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biriga aylangan. Jahon iqtisodiyotida raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda tashkilotlarning barqaror rivojlanishi koʻp jihatdan innovatsion faoliyatni samarali boshqarish bilan bogʻliq boʻlib qolmoqda. Shu sababli innovatsion menejmentning nazariy va amaliy jihatlari koʻplab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng oʻrganilgan. Xususan, innovatsiyalar nazariyasi va ularni iqtisodiy rivojlanishdagi roli dastlab iqtisodiy taʼlimotlar doirasida shakllanib, keyinchalik mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida rivojlandi

Tashkilotlarning innovatsiya qilish qobiliyati va innovatsiyalarni amalga oshirish tezligi hozirgi davrda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon endilikda tashkilot innovatsion salohiyatiga eʼtibor qaratish kerakmi yoʻqmi degan masala emas, balki innovatsion faoliyatni qanday qilib ongli ravishda shakllantirish, amalga oshirish va qoʻllab-quvvatlash masalasiga aylangan. Korxonalar oʻzlarining uzoq muddatli innovatsion imkoniyatlarini shakllantirishi, shuningdek,

yaratilgan yangiliklardan qiymat hosil qilish va undan samarali foydalanishni ta'minlashi zarur.

ADABIYOTBIYOTLAR TAHLILI VA METOLOGIYASI

Innovatsion jarayonni boshqarishning asosiy jihatlaridan biri shundaki, innovatsiya — bu bir martalik voqea emas, balki uzluksiz jarayondir. Bu jarayonni boshqarish uchun tizimli yondashuvlar va tuzilgan metodologiyalar zarur bo'lib, ular g'oyadan tortib tijoratlashtirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni yo'naltiradi.

Bugungi dinamik va raqobatbardosh biznes muhitida muvaffaqiyatga erishishni istovchi tashkilotlar uchun innovatsion jarayonni boshqarish zarurdir. Bu rahbariyatning qat'iy sadoqati, strategik tafakkur va g'oyadan amalga oshirishgacha bo'lgan jarayonni tizimli tarzda boshqarishni talab qiladi. Innovatsion madaniyatni rivojlantirish, asosiy muammolarni hal etish va samarali boshqaruv amaliyotlaridan foydalanish orqali tashkilotlar yangi imkoniyatlarni ochadi, barqaror o'sishni ta'minlaydi va bozorda raqobat ustunligini saqlab qoladi.

Innovatsiyalarni tashkil qilish innovatsion menejmentning muhim vazifalaridan biri bo'lib, uning amalga oshirilishi barcha darajalardagi rahbarlar faoliyatining eng ahamiyatli qismi hisoblanadi. Innovatsion menejmentda tashkil qilish qabul qilingan rejaviy qarorlarning eng samarali holda bajarilishini ta'minlash maqsadida innovatsion jarayondagi barcha elementlarning makon va zamonda oqilona uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Innovatsiyalarni tashkil qilish rejaviy topshiriqlarni bajarish vositasi sifatida chiqadi va ularning qanday sharoitlarda amalga oshirilishini belgilab beradi. Bu holat juda muhim hisoblanadi, chunki u tashkil qilishning egiluvchan bo'lishini va ishlarning mazmuniga bog'liq holda dinamik ravishda o'zgarib turishini talab qiladi. Innovatsion menejmentning zamonaviy nazariya va amaliyotida innovatsiyalarni tashkil qilishning xilma-xil shakllari va turlari mavjud.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish — menejment fanining alohida tarmog'i sifatida shakllangan. Innovatsion menejment metodologiyasi deganda innovatsion faoliyatni tashkil etish, rejalashtirish, amalga oshirish va baholash jarayonlarini tizimli ravishda o'rganish va boshqarish usullari majmuasi tushuniladi.

Metodologiya innovatsion menejmentning nazariy asoslarini belgilaydi, ya'ni u qanday yondashuvlar, prinsiplar va usullar yordamida innovatsiyalarni yaratish va tatbiq etish mumkinligini aniqlab beradi. Har bir tashkilotning muvaffaqiyati uning innovatsion faoliyatni to'g'ri metodologik asosda boshqarish qobiliyatiga bog'liqdir.

NATIJARLAR

Davlat qonunchiligida innovatsion texnologik jarayon mahsulotni yangidan yaratish yoki qayta takomillashtirish texnologik jarayonni yakuniy natijasi sifatida baholanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvarda "Turizm,

madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida” [4] gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon mazmuniga ko‘ra turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish va uning natijasi o‘laroq yurtimiz siyosati va ilmiy izlanishlar va texnologiyalarning muvaffaqiyatli yutuqlaridan samarali foydalangan holda “national innovation system” tizimini shakllantirish zaruratini takidlaydi.

Davlatning aralashuvi natijasida turizmni rivojlantirish iqtisodiy siyosati mavjud tizimustuvorligi va kelajagini ta‘minlash maqsadida barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari, tashkilotlarni safarbar etish, iqtisodiyotning yetakchi texnikaviy sohasi hamda tadbirkorlik sektori qo‘llab-quvvatlashi, fan va texnika yutuqlaridan maqsadli rejalarda jadal foydalanish ta‘minlash lozimligini ko‘rsatadi. Buning isboti va erishilgan natijalar sifatida 2022-yilning o‘zidayoq O‘zbekistonga 5,2 million sayyoh tashrif buyurganini ayta olamiz. Tashriflar soni bo‘yicha Turkiya yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, 75,6 ming sayyohni tashkil etadi. Qolgan davlatlar ulushi esa Koreya Respublikasidan 19,9 ming, Germaniyadan 17,7 ming, Hindiston 16,8 ming, Amerika Qo‘shma Shtatlari 15,1 ming, Fransiyadan 11 ming, Buyuk Britaniyadan 10,5 ming, Ozarbayjon 10,4 ming, Italiya 8,8 mingni tashkil etadi. Ammo Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stli mamlakatlari orasida eng ko‘p tashrif Rossiya davlatidan 600 ming sayyohni tashkil etadi. Tashriflar sonining oshishida turizm sohasi va xizmat ko‘rsatishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy, qulay muhitni yarata olingani katta yordam berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda o‘zaro raqobatlashayotgan turoperatorlarni kiritayotgan yana bir yangiligi aviakompaniya parvozlarini 3D ro‘yxatga olish bo‘ldi. Sayyohlar samolyot bortida joyni oldindan tanlaydilar, ro‘yxatdan o‘tadilar va bortga chiqish ruxsatnomasini oladilar. Bundan tashqari, sayohatchilar uchun yanada qulaylik yaratish maqsadida xaridorlarga samalyotda mavjud o‘rinlar haqidagi ma‘lumotlar oldindan taqdimetiladi. Yo‘lovchilar o‘z o‘rinlarini uchish muddatidan ancha oldin (bir yoki uch oy) bron qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday turdagi ro‘yxatga olish tizmi reyslardan ommaviy foydalanishda, reysga chiqish vaqtida hosil bo‘ladigan o‘ta tirbandlikni oldini olish va tekshiruv punktlarida hosil bo‘ladigan uzun navbatlarni oldini olishga imkon beradi.

MUHOKAMA

Innovatsion menejment strukturalari turizm tarmog‘ining faqat iqtisodiy samaradorligini oshirish emas, balki xizmat sifati, raqamlashtirish, marketing, ekologik barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirish kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotning natijalari mamlakatimizda turizmni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Innovatsion menejment strukturalarini turizmga qo‘llash maqsadi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. davlat boshqaruvi organlari, xususiy sektor va jamoatchilik o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;
2. raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish;
3. turistik xizmatlarda "klaster" tizimini yaratish orqali hududiy sinergiyani ta'minlash;
4. ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim tizimi va turizm biznesi o'rtasida uzviy bog'liqlikni shakllantirish;
5. barqaror turizm va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish.

Shu bilan birga, innovatsion menejment strukturasi nafaqat markaziy boshqaruv organlari, balki viloyatlar va tumanlardagi turizm tashkilotlari faoliyatini ham o'zgartirishi kutiladi. Buning natijasida qaror qabul qilish tezlashadi, resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi va tashrif buyuruvchilar uchun xizmat sifati yaxshilanadi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy ilmiy-amaliy vazifalarni bajarish zarur hisoblanadi:

1. O'zbekiston turizm sohasining hozirgi menejment tizimini tahlil qilish. Birinchi vazifa sifatida mamlakatimiz turizm sohasida mavjud boshqaruv strukturalarining amaldagi holati, ularning afzallik va kamchiliklari chuqur tahlil qilinadi. Bu jarayonda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

- turizmni boshqaruvchi davlat organlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik darajasi;
- qaror qabul qilishning markazlashgan yoki markazlashmagan darajasi;
- byurokratik to'siqlar va ularning samaradorlikka ta'siri;
- innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etishdagi to'siqlar.

2. Xorijiy mamlakatlarning innovatsion menejment tajribalarini o'rganish. Ushbu vazifa doirasida rivojlangan davlatlar, xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va AQShning turizm boshqaruvi tizimidagi ilg'or tajribalari o'rganiladi. E'tibor quyidagi jihatlarga qaratiladi:

- Innovatsion menejment modellarining turlari (adhokratik, holokratik, klaster yoki markazlashtirilgan tizimlar);
- Davlat va xususiy sektor hamkorligi mexanizmlari;
- Raqamlashtirish, "smart tourism" va "open data" tizimlarining qo'llanilishi;
- Xizmatlar sifati va mijozlar qoniqishini oshirishda innovatsion boshqaruvning o'rni.

3. O'zbekiston uchun mos innovatsion menejment modelini ishlab chiqish. Tadqiqotning asosiy bosqichi sifatida, tahlillar va xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston

turizmi uchun eng samarali innovatsion menejment modeli ishlab chiqiladi. Model quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- boshqaruvning ko‘p darajali, moslashuvchan va interaktiv shakli;
- “excellence markazlari” yoki “turizm klasterlari” tizimi orqali hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash;
- axborot almashishning yagona raqamli platformasi;
- turizm sohasida qaror qabul qilishda sun‘iy intellekt va tahliliy tizimlardan foydalanish;
- xodimlar malakasini oshirish va innovatsion madaniyatni shakllantirish.
- Bu model amaliy jihatdan joriy etilsa, turizmدا samaradorlik, tezkorlik va mijozlar ehtiyojiga moslashuv darajasi ortadi.

4. Innovatsion menejment strukturasi asosida turizmni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish. Bu vazifa doirasida taklif etilayotgan modelning amalda ishlash mexanizmlari ishlab chiqiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- tashkilotlar o‘rtasidagi rol va funksiyalarni aniqlash;
- boshqaruv darajalari o‘rtasidagi axborot oqimini tartibga solish;
- turizm subyektlarini raqamli tizim orqali integratsiyalash;
- tahliliy markazlar va “startap platformalar” tashkil etish;
- turizmدا innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini yaratish.

Mazkur mexanizmlar orqali turizm tarmog‘ida ilg‘or boshqaruv tizimi shakllanadi, resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi hamda investitsion jozibadorlik kuchayadi.].

5. Innovatsion menejmentni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini baholash. Tadqiqotning yakuniy bosqichi sifatida innovatsion menejment tizimining O‘zbekiston turizmi uchun kutilayotgan natijalari iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar asosida baholanadi. Bu baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- turizm sohasida yaratiladigan qo‘shimcha ish o‘rinlari soni;
- mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga turizm hissasining ortishi;
- xorijiy sayyohlar oqimining ko‘payishi;
- xizmat sifati va mijoz qoniqishining o‘sishi;
- mahalliy tadbirkorlik subyektlarining faollashuvi

6. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot yakunida davlat siyosati, xususiy sektor va ilmiy muassasalar uchun aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Turizm qo‘mitasi huzurida Innovatsion menejment markazi tashkil etish; Har bir hududda “turizm klasteri” yoki “hub” asosida boshqaruv tizimini joriy etish; Turizm sohasidagi rahbar kadrlarni innovatsion menejment bo‘yicha qayta tayyorlash; Raqamli boshqaruv va “smart tourism” platformasini yo‘lga qo‘yish. Mazkur tavsiyalar O‘zbekiston turizmini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tashkilotning tuzilmasida innovatsiyalarni joriy etish uchun kompaniya o'z faoliyatining asosini tashkil etuvchi vazifalar va jarayonlarni chuqur tahlil qilishi zarur. Axborot texnologiyalaridan tortib to ish haqi hisoblash tizimigacha, hatto binolar va yer kabi moddiy aktivlarga — kompaniya o'zining mavjud taxminlari va odatiy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishi, nimalar zarur va qayerda innovatsiya imkoniyatlari mavjudligini aniqlashi kerak. Yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish mumkinmi? Ayrim vazifalarni outsorsing asosida tashqi tashkilotlarga topshirish mumkinmi? Moddiy aktivlarga yangi nuqtai nazardan qarab, ularni boshqacha tarzda foydalanish imkoniyati bormi?

Eng ko'p uchraydigan tuzilma innovatsiyasi inson resurslari va boshqaruv tuzilmasi bilan bog'liq. Har bir kompaniyaning menejerlar va xodimlardan kutgan ehtiyojlari turlicha bo'lganligi sababli, ko'plab tashkilotlar mavjud tashkiliy tuzilmalardan birini qabul qilish orqali foyda ko'rishlari mumkin — an'anaviy ierarxik tuzilmalardan tortib, holakratiyalar kabi tajribaviy modellargacha. Ayniqsa kichik kompaniyalar ko'proq soddalashgan (ya'ni "flatter") tuzilmalarga moyil bo'ladilar, biroq o'sish jarayonida bunday tizimlar barqaror bo'lmashligi mumkin. Shu bilan birga, har doim ham "g'ildirakni qayta ixtiro qilish" shart emas. Ba'zida innovatsiya shunchaki tadqiqot yoki tahlil kabi aniq vazifalarga bag'ishlangan yangi bo'lim tashkil etishdan iborat bo'lishi mumkin.[13]

Dunyodagi eng mukammal boshqaruv tuzilmasi ham, agar unda ishlayotgan insonlar undan to'liq foydalana olmasa, hech qanday samara bermaydi. Bugungi kunda eng malakali xodimlarni topish va ularni tashkilotda ushlab qolish kompaniya tuzilmasining muvaffaqiyati uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Aslida, to'g'ri tanlangan tuzilma va to'g'ri tanlangan insonlar uyg'unligi kompaniya uchun cheksiz innovatsiyalar va barqaror o'sishga yo'l ochib beradi.

Innovatsiya — mahsulotlar, jarayonlar, tashkiliy usullar yoki marketing bilan bog'liq bo'lishidan qat'i nazar — bu murakkab, ko'p yo'nalishli faoliyat bo'lib, u korxonaning turli sohalarini (masalan, marketing, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, moliyaviy bo'limlar va boshqalar), shuningdek, mijozlar va yetkazib beruvchilarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizim samarali ishlashi uchun u bilan bog'liq barcha faoliyat turlarining samarali muvofiqlashtirilishi zarur.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion menejment har qanday iqtisodiy tizimning rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. U nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonini, balki korxonada boshqaruvining strategik yo'nalishini ham belgilaydi. Innovatsion menejment strukturasi to'g'ri shakllanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, resurslardan oqilona foydalanishga va raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — bu innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishdir. Shu nuqtai nazardan, innovatsion menejment metodologiyasi mamlakat miqyosida ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, texnoparklar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish siyosati — bularning barchasi innovatsion boshqaruv tizimining samarali ishlashiga asos yaratmoqda.

O‘zbekiston misolida olib qaraganda, innovatsion menejment metodologiyasining qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ilmiy-texnik salohiyatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Davlat siyosati darajasida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, texnoparklar, startaplar va ilmiy markazlar faoliyatini rivojlantirish — bularning barchasi innovatsion menejment tizimini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida” gi No PF-52-sonli farmoni. 15.01.2022-yil.
2. Innovatsion menejment: Darslik / G.Xamdamova, O.Astankulov, A.Matchanov; - T. : “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 434 b.
3. 3.Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘l./R.I.Gimush, F.M.Matm urodov; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi,Toshkent arxitektura va qurilish in-ti. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. — 144 b.
4. 4.Innovatsion menejment [Matn]: darslik / M.A.Maxkamova, D.X.Nabiyev, - Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2022. – 336 b.
5. Kotler.P., Keller.K.L.(2006). Marketing Manegement. Pearson Education.
6. Porter.M.E.(1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
7. 7.”Turzimda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”. Jabborova.Z.A. Maqola. 2023.
8. JENSEN, M.B, JOHNSON, B., LORENZ, E., LUNDVALL, B.A. Forms of knowledge and modes of innovation. Research Policy. Vol.36, n.5, pp.680-693. 2007
9. BROWN, S., EISENHARDT, K. The art of continuous change: Linking complexity theory and time paced evolution in relentlessly shifting organizations. Administrative Science Quarterly. Vol 42, pp.1-34.1997
- 10.UN Tourism – “What is innovation?” bo‘yicha sahifa: <https://www.unwto.org/what-is-tourism-innovation>

11. Uzbekistan turizmi bo'yicha investitsiya qo'llanma – UN Tourism tomonidan:
<https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2023-10/uzbekistan-final-report-october23.pdf>
12. United Nations World Tourism Organization (UN Tourism) – “Innovation, Education & Investment” bo'yicha sahifa: <https://www.unwto.org/innovation-education-investment-tourism>

